

"O'zbekim" boshqotirmasi

O'zbekiston
Toshkent
Sergeli 8-A
Mo'ljal: Sergeli MUM binosi

Muharrir: Nigora Umarova
Kordinator:Liliya Nikolenko
Loyiha menedjeri: Vadim Navotniy
Telefon: (998 712)510-801
Faks: (998 712)510-801
Elektron pochta
manzili:info@edunet.uz
Web sahifa manzili: http://edunet.uz

Qomusimiz hamda qomusimiz haqida yozilgan web sahifalar manzili:

<http://www.gov.uz/uz/>
O'zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati Portali

<http://www.press-service.uz/uz/section.scm?sectionId=6275>
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati

<http://www.yilnoma.uz/index.html>
Mustaqillik yilnomasi sayti

<http://uzbkonst.freenet.uz/konshuq.html>
O'zbekiston konstitutsiyasiga bag'ishlangan sayt

<http://www.birdamlik.info/Konstitutsiya.html>
Konstitutsiya aks ettirilgan sayt

http://myp.uz/huquq/index.php?option=com_content&task=blogcategory&id=15&Itemid=34
Milliy Yoshlar Portalining konstitutsiyaga bag'ishlangan bo'limi

<http://aal.freenet.uz/ukonstitutsiya.html>
Angren akademik litseyining sayti



- ENIGA: 1. Erkin Vohidovning mashhur qasidasi. 5. "O'zbekiston Qahramoni" unvonini olgan mashhur jurnalist, tanqidchi. 10. Vatanimizning "Oltin vodiy"si. 15. Katta buvi, momo. 16. Pokiza, sarishta. 17. Boshqa kishi. 18. Mashhur kishilarning toshdan yasalgan katta tasviri. 19. Hamza Hakimzoda Niyoziyning taxalluslaridan biri. 20. Mashhur aktyor - ... Hi-doyatov. 21. Bir so'zni ifodalovchi birikmalar. 23. "Doktor Faustus" romani muallifi, jahon adabiyotining mashhur namoyandasi. 25. Mutasavvuf, "Yassaviya" tariqatining asoschis-ining ismi. 26. Qozonga birinchi bo'lib tushadigan narsa. 27. Ma'lum muddatga foydalanish. 29. Sa'diy Sheroziy asari. 30. Qizil rang. 33. Amir Temur haykalini yaratgan mashhur haykal-tarosh. 34. G'arbda Avitsenna nomi bilan shuhrat qozongan alloma. 36. Vatanimiz poytaxti. 39. Kerak. 40. Tinchlik elchisi bo'lgan qush. 42. Mashhur tarixchi Yevgeniy Berezikovning o'zbekcha taxallusi. 45. ...-harakat. 46. Qozog'istondagi daryo. 47. Birovga og'irligi tushmoq. 49. Sotiladigan mol. 51. Rossiyada hukmronlik qilgan sulolalardan biri. 53. Mazmun. 54. Yengil sha-bada. 55. Estrada guruhlaridan biri. 56. Kichik daryo. 58. Nur ...dandir. 60. Kichik suv yo'li. 62. Peshonaga yozilgan umr, taqdir. 65. Koreyscha familiya. 66. Ibn Sinoning mashhur asari - "... qonunlari". 68. Jannatdagi buloq. 69. Otlig askar. 70. Uyda o'stiriladigan gullardan biri. 73. Suvarak. 74. Shohmot donalaridan biri. 75. Sayqali ruyi zamin. 78. Adolat. 82. Asrimiz boshlarida mustaqillik uchun kurashgan jadidlardan biri. 83. Yaponiya tarkibidagi orol. 85. Inglizcha erkaklar ismi. 86. Xudoyberdi To'xtaboevning "Qasoskorning oltin boshi" asaridagi millat qahramonlaridan biri. 87. Ozoda, sarishta. 88. Ayg'oqchi. 89. Islom huquqshunosligi fanining bilimdoni, alloma, "Hidoya" asari muallifi.
- BO'YIGA: 1. Jannatmakon diyorumiz. 2. Rizq-ro'z; fayz. 3. Kuba davlati poytaxti. 4. Mumtoz o'zbek shoirilaridan biri, mutasavvuf. 5. Amir Temur tug'ilgan shahar. 6. Birinchi o'zbek generali. 7. Qurshov, orada qolib ketish. 8. Dardli kishilarga ovunchoq bo'lish. 9. O'zbekiston Qahramoni, mashhur shoir, bir qancha kitoblar muallifi. 10. Alisher Navoiyning forsiy taxallusi. 11. Yozuvchi. 12. Tuman, nohiya. 13. Badiiy asardagi qahramonlar. 14. Tarixda vatanimiz hududidagi hukm yuritgan sulolalardan biri. 19. Raqam (rus). 22. Ho'jalik rahbari. 24. Sobiq "Paxtakor"chilardan biri. 28. Mashhur hind aktrisasi. 31. Birinchi o'zbek romannavisining ismi. 32. Muqaddas kitoblardan biri. 35. Baliq uvldirig'i. 37. Hotami 38. Uy-ro'zg'or buyumi. 41. Hargiz. 43. So'rov. 44. Xususiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish idorasi. 48. Lahza. 49. O'zbekistonga qo'shni davlat. 50. Bobur, Cho'lponlar vatani. 51. Davlatlarning siyosiy tuzilishi shakllaridan biri. 52. Oliy hakam. 57. G'am, qayg'u. 58. Pufak. 59. Tarixda O'rta Osiyodagi oliy unvon. 60. Mast qiluvchi ichimlik. 61. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar. 62. Yog'in turi. 63. Sadridin Ayniy tug'ilgan qishloq. 64. "Ravshan" dostonidagi pol-pon-kallardan biri. 65. Qatag'onga uchragan qo'qonlik shoir. 67. "Al-adab al-mufrad", "Tarixi Buxoro", "Tarixussiqot vaz-zuafo min ruvotil hadis" asarlari muallifi. 71. Yevropada yashovchi xalqlardan biri. 72. ... Dantes (A. Dyuma). 76. Mashhur ingliz hikoyanavisi - Somerset 77. Simvol. 79. G'alla. 80. Xurofot. 81. Frantsiyalik mashhur fiziklar sulolasi. 84. O'ta ochko'z.

Biz haqimizda internetdagi www.edunet.uz web sahifasidan bilib olishingiz mumkin. www.edunet.uz



O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi kuniga

2006-yil, noyabr



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

Bilasizmi?!

O'zbekiston Respublikasining aholisi 25,1 mln. kishini tashkil etadi (2002 yil boshida), ularning 37%-shahar va 63% qishloq aholisidir. Aholining asosiy qismi - o'zbeklar bo'lib, ular aholining deyarli 80% ni tashkil qiladi. O'zbekiston ko'pmillatli respublika bo'lib, 100 dan ortiq millat va elatlarning vakillari istiqomat qiladi. Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar singari O'zbekiston Respublikasining ham aholisi nisbatan "yosh" bo'lib, uning katta qismi mehnatga layoqatli yoshdadir. Aholi umumiy miqdorining 39%ini mehnatga layoqatli davrgacha bo'lgan yoshlar, 54%i mehnatga layoqatli va 7% mehnatga layoqatli davrdan katta yoshlilar tashkil etadi.

Ushbu sonda:

- Konstitutsiya nima? 1-2
- Bilasizmi?! 1
- Ta'lim tizimidagi islohatlar: 3
- Faylasuflar qouchilik haqida 3
- «O'zbekim» boshqotirmasi 4
- Qomusimiz hamda qomusimiz haqida yozilgan web sahifalar manzili 4

O'zbekiston xalqi:

- inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalari sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib,
 - hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda,
 - o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib,
 - demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib,
 - xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda,
 - respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib,
 - insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab,
 - fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida,
- o'zining muxtor vakillari siyosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi.

Konstitutsiya nima, uni o'rganish nima uchun kerak?



Prezident I.A. Karimovning barcha qaror, nutq hamda kitoblarini prezident matbuot xizmatining www.press-service.uz

ommasi diliga yaqin va tushunarli bo'lgan hujjat yaratish vazifasi to'la bajarildi. Konstitutsiya loyihasi komissiya tomonidan tayyorlandi va Parlamentda qabul qilindi. Bu ishda keng xalq ommasi ishtirok etdi. Xalqimizning eng iqtidorli, bilimli vakillari loyiha ishlovchi komissiya, ishchi guruhlari tarkibiga kiritildi. Tayyorlangan loyiha muhokamasida aksariyat ko'pchilik fuqarolarimiz ishtirok etishdi. Muhokama ikki bosqichda o'tdi. Birinchi marta 1992 yil 26 sentyabrda muhokamaga qo'yilgan loyiha yuzasidan tushgan taklif va istaklar o'rganilib, loyihaga o'zgartirishlar kiritildi va shu yilning 21 noyabrda yangi tahrirda muhokama uchun e'lon qilindi. Bu - konstitutsiyani ishlab chiqish va qabul qilishga O'zbekistonning o'ziga xos yondashuvi, aytish mumkinki, Konstitutsiya qabul qilish jahon tajribasiga O'zbekistonning qo'shgan hissasi bo'ldi. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, muhokama haqiqiy demokratik, erkin va oshkora o'tdi. Ommaviy axborot vositalari har qanday fikrni to'siqsiz, o'zgarishsiz e'lon qildi.



Партнеры проекта:



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan maxsus son

Muharrir: Nigora Umarova

Konstitutsiya nima uni o'rganish nima uchun kerak?

tomonidan 80ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritildi. Shuni to'liq ishonch bilan aytish mumkin, amaldagi Konstitutsiyamiz xalq ijodi, huquqiy ongi va madaniyati, donoligi, tafakkuri mahsulidir.



Konstitutsiyaning asosiy ijodkori, egasi xalqdir. Hozirgi kunga kelib Konstitutsiyaning chuqur o'rganish masalasi kun tartibida paydo bo'ldi. "Nima uchun Konstitutsiyaning o'rganish kerak?" degan savolga ham davlat boshlig'i Konstitutsiyaning 8 yilligiga bag'ishlangan tantanalari marosimida so'zlagan nutqida aniq va lo'nda qilib, "Ming afsuski, bu sir emas - ko'pchiligimiz Konstitutsiyaning ma'no-mazmunini yaxshi bilmaymiz, uni sinchiklab o'rganmaymiz. Vaholanki, agar Konstitutsiyamizning mohiyatiga kirib borsak, mag'zini chaqsak, bugun oldimizda turgan ko'p-gina savollarga, muhim muammolarni yechishda javob topishimiz mumkin" deb javob berdi. Haqiqatan ham Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lsa ham, u faqat davlatga emas, fuqarolarga xizmat qilishi kerak. Davlat Konstitutsiyasiz ham yashay oladi. Yashaganda ham konstitutsiya yo'q bo'lsa, uning faoliyati cheklanmagan darajada amalga oshadi. Bundan fuqarolar aziyat chekadi. Konstitutsiya ana shu aziyat, zo'ravonlik bo'lmasligi uchun ham kerak. Unda fuqarolarning haq-huquqi, fuqarolar oldida davlatning burchi, fuqarolar bilan davlat munosabati hamda fuqarolar manfaatining ustunligi belgilanadi. Konstitutsiya bo'lmasa, yoki fuqaro bor Konstitutsiyaning chuqur bilmasa, u o'z qonuniy manfaatlarini himoya qila olmaydi yoki himoya qilishi juda qiyin kechadi. Shuning uchun yana fuqarolar manfaatidan kelib chiqib, Konstitutsiyaning o'rganishni davlat siyosati darajasiga ko'tarish maqsadida Respublika Prezidenti "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida" maxsus Farmoyish qabul qildi. Unga asosan, Konstitutsiyaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, ma'no-mazmuni va mohiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirish, shuningdek, Konstitutsiyaning bilish, uning mazmun-mohiyatini targ'ib va tashviq qilish maqsadida O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha bolalar va o'quvchilarda mustahkam bilimlarni shakllantirish hamda Konstitutsiya mohiyatini keng omma ongiga singdirishga qaratilgan Konstitutsiyaning o'rganish dasturini yaratish, uning asosida maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqish va tegishli metodikalarni tayyorlash bo'yicha komissiya tuzildi. Komissiya zimmasiga juda mas'uliyatli vazifalar yuklandi. Konstitutsiya bu huquqiy xujjat, uning mazmun-mohiyati, vazifasi, huquqiy tabiati, normalarini chuqur bil-gandagina u har birimizga naf kelti-

rishi, uni hurmat qilishimiz, u bilan fahrlanishimiz mumkin. Aks holda u boshqa oddiy qog'ozdan farq qilmaydi. Konstitutsiya orqali nimalarni bilishimiz kerak. Buni shartli ikkiga bo'lishimiz mumkin. Birinchidan, hamma bilishi kerak bo'lgan masalalar va, ikkinchidan, ayrim shaxslar chuqurroq bilishi kerak bo'lgan masalalar. Hamma bilishi kerak bo'lgan masalalar: Birinchidan, Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini bilish. Konstitutsiyamiz mustaqillik mahsuli bo'lib, unga xalqimiz ruhiyati, axloqi, ma'naviyati, irodasi, orzu-istaklari singdirilgan. Konstitutsiyaning ishlab chiqish va qabul qilishda xalqning chetda turmasdan faol ishtirok etishi uning xalqchil, insonparvar bo'lishini va hech qanday xatoliklarga yul qo'ymasligini nazarda tutmoq joizdir. Konstitutsiya xalq ijodkorligi, dunyoqarashi, bilimi mahsulidir. Shuningdek, mustaqillik g'oyalarning aks etishi Konstitutsiya mazmun-mohiyatini boyitadi. Ikkinchidan, Konstitutsiyaning avvalgi konstitutsiyalardan farqini bilish. Bu konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq bilishga olib keladi. Bunda, eng asosiysi, amaldagi Konstitutsiyamiz avvalgi Konstitutsiyalardan o'zida inson manfaatlarini ustun qo'yishi bilan farq qilib, bunda demokratik, huquqiy davlatlarga xos ko'ppartiyaviylik, hokimiyat bo'linishi prinsipi, fikrlar xilma-xilligi, o'zini o'zi boshqaruv, davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar va jamiyat oldidagi mas'ulligi, bozor munosabatlari prinsiplari va g'oyalari mustahkamlangan. Uchinchidan, Konstitutsiyaning ahamiyatini bilish zarur. Konstitutsiya, konstitutsiyaviy davlat tuzumini o'rnatib, unga mos hokimiyat tizimi va ularni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimini belgilaydi, bu eng avvalo, inson manfaati uchun qilinganligini anglatiradi. Konstitutsiya fuqarolarni har qanday tazyiq, adolat-sizlik, zo'ravonlikdan saqlab qoluvchi vosita, shuning uchun bunday salbiy holatlarning oldini oladigan Konstitutsiyadagi barcha qoida va normalarni bilish darkor. Konstitutsiya boshqa qonunlar uchun asos bo'lishini, boshqa qonunlar esa Konstitutsiyaga zid bo'lmasligini bilib olish zarur. Shunda qandaydir sabab bilan boshqa qonunlarda fuqarolar manfaatini buzilsa, unga Konstitutsiya ro'kach qilinishi va buzilgan huquq tiklanishi mumkin. Shuningdek, Konstitutsiya tinchlik-osoyishtalikni saqlashda ham katta ahamiyatga ega bo'lib, bu osoyishtalikni ta'minlovchi normalarni albatta bilish kerak. To'rtinchidan, Konstitutsiyaning asosiy tamoyillari va xususiyatlarini bilish zarur. Konstitutsiyaning tamoyil va xususiyatlarini uning demokratik, insonparvar xususiyatini ko'rsatuvchi asosiy belgilardir. Konstitutsiya prinsiplari hisoblanuvchi - davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, qonuniylik, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, demokratizm, inson manfaatlarining ustuvorligini bilish zarur. Bularni bilish orqali mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rni, davlatning jamiyatdagi o'rni va, eng muhimi, fuqarolarning jamiyatdagi o'z o'rnini bilish imkoniyati tug'iladi. Hokimiyatning bir-

dan-bir manbai xalq ekanligi, malakali, to'g'ri va samarali amalga oshirishi uchun hokimiyat davlatga ishonib topshirilganligi, hokimiyatni amalga oshirish uchun davlat tomonidan sharoitlar yaratib berilishi haqida ham tasavvur hosil bo'ladi. Ana shu prinsiplarga to'la amal qilgandagina bosh maqsad - insonning oliy qadriyat darajasiga ko'tarilishi bilib olinadi. Beshinchidan va bu eng asosiysi, inson o'zining huquqiy holatini aniq bilishi uchun Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarni, ularning kafolatlarini hamda burchlarini o'rganishi zarur. Buning natijasida fuqarolar o'z ijtimoiy-shaxsiy hayotini, o'zining qonuniy manfaatlarini himoya qilishni, huquq, erkinliklari buzilgan taqdirda ularni tiklash uchun qanday harakat qilishni, davlatdan, uning tuzilmalaridan, mansabdor shaxslardan nima talab qilishni bilib oladilar. Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni yaxshi bilish, inson huquqlarining boshqa xujjatlar bilan kamsitilishiga to'sqinlik qiladi. Huquq va erkinliklarni bilish belgilangan huquqlarni konstitutsiyada belgilangan qoidalardan tashqari hech qanday asosda va tartibda cheklash mumkin emasligi haqida fuqarolarga tushuncha beradi. Konstitutsiyaviy kafolatlarni yaxshi bilish - huquq va erkinliklar kuchli vositalari orqali ta'minlanishi haqida tasavvur hosil qiladi va har bir fuqaroda davlatga, kelajakka ishonch hosil bo'ladi. Shaxsiy huquq va erkinliklarni bilish fuqarolarga or-nomusi, qadr-qimmatini, daxlsizligi, erkinligini ro'yobga chiqarishga, siyosiy huquqlarni bilish siyosiy hayotda, davlat boshqaruv ishlarida samarali, ongli ishtirok etish, iqtisodiy huquqlarni bilish turmushini to'g'ri tashkil qilish, farovonlikka erishishda yordam beradi. Konstitutsiyada o'rnatilgan burchlarni bilish ba'zi harakatlarni sodir etishdan tiyilish, ba'zi harakatlarni albatta ongli ravishda amalga oshirishga olib keladi. Natijada, har bir fuqaro jamiyatdagi o'z o'rnini aniq biladi va taqdiri birinchi navbatda o'ziga bog'liqligini his qiladi, bu esa Konstitutsiyaning muqaddas deb qarashga olib keladi. Oltinchidan, Konstitutsiyaviy tuzum, uning asoslarini, davlat shakli va boshqaruv shaklini, hokimiyatni amalga oshiruvchi organlar tizimi va ularning faoliyatini bilish kerak. Konstitutsiyaning bu masalalar haqidagi normalarini bilish, fuqarolarning dunyoqarashini kengaytirib, davlatga, uning tomonidan o'rnatilgan tartiblarga, hokimiyat organlari tizimiga hurmat hissini vujudga keltiradi. Ular haqida aniq tasavvurga ega bo'lish davlat va jamiyat ishlarida ongli, faol ishtirok etishni, davlat tuzilmalari, mansabdor shaxslar faoliyati ustidan nazorat qilishda ishtirok etishini ta'minlaydi. Shaxslar o'z huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanishini; mansabdor shaxslar, deputatlar o'z vakolatlarini haqidagi normalarni chuqurroq o'rganishi va bilishi zarurdir.

Nigora Umarova

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan maxsus son

Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidir. (IX bob, 41-modda)



Ta'lim tizimini takomillashtirish uchun 1992 yilda "Ta'lim to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Bu Qonun talablaridan kelib chiqqan holda ta'limni isloh qilishda quyidagi tamoyillar asos qilib olindi:

- ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;
- ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta'limda umuminsoniy va milliy madaniy-ma'naviy qadriyatlarining ustuvorligi;
- millati, e'tiqodi, dinidan qat'iy nazar barcha fuqarolar uchun ta'lim olish

imkoniyati yaratilganligi;

- ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan xolisligi.

1992 yil 28 fevralda Prezident Farmoni bilan 8 ta viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi. Eng zamonaviy, muhim mutaxassisliklar bo'yicha oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. Jumladan: Harbiy Akademiya, Ichki ishlar Akademiyasi, Bank-moliya Akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog'-konchilik instituti va h.k.

Har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalash, kmolga yetkazish maqsadida "Iste'dod" xayriya jamg'armasi, "Ulug'bek" iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, "Kamolot" yoshlar jamg'armasi, "Umid" jamg'armasi kabi jamg'armalar tuzildi. Bu jamg'armalar ajratilgan grant hisobiga iqtidorli yoshlarni chet ellarda o'qishlari uchun imkoniyat yaratib bermoqdalar.

1997 yil 29 avgustda Oliy Majlis "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonun va "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur" qabul qildi. O'zbekistonda 12 yillik majburiy ta'lim joriy etildi. 9-sinfni bitkazganlar akademik litsey yoki kasb-hunar kollejariga jalb qilinadigan bo'ldi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunga ko'ra ta'lim tizimini isloh qilish bosqichma-bosqich o'tkaziladi.

Birinchi bosqich o'tish davri bo'lib, u 1997-2001 yillarda davom etadi, ta'limning rivojlanishi uchun huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moddiy shart-sharoitlar yaratiladi.

Ikkinchi bosqich 2001-2005 yillarni o'z ichiga oladi va milliy dastur to'liq amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich 2005 va undan keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil qilgan holda kadrlar tayyorlash tizimi yanada takomillashtiriladi va rivojlantiriladi.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Faylasuflar qonun va qonunchilik haqida

Qonun ortida uni qo'llab-quvvatlaydigan majburlovchi kuch bo'lmasa – u qonun emas.

Jeyms Garfild

Qonun insoniy doolikning yuksak ifodasi bo'lib, u odamlar to'plagan tajribadan jamiyat faravonligi yo'lida foydalanadi.

Samyuel Jonson

Hech bir qonunga bo'ysunmaslik o'zini najotbaxsh himoyadan mahrum etish demakdir, zero, qonunlar bizni boshqalardangina emas, o'zimizdan ham asrab turmog'i kerak.

Genrix Geyne

Qonunlar illatlarga barham berib, yaxshilikka yo'l ochmog'i kerak.

Mark Tully Sitseron

Qonunlar barchaga barobar bo'lishi zarur. Erkinlik qonun yo'l qo'ygan barcha narsalarni qila bilish huquqidir.

Sharl Lui Monteskye

Qonunlar oddiy odamlar uchun yaratiladi, shu boisdan ular aql-idrokning oddiygina qoidalariga asoslamog'i lozim.

Tomas Jefferson

Qayerda qonun tugasa, o'sha yerda zo'rlik boshlanadi.

Uilyam Pitt

Yaxshi qonunlar urf-odatlardan tug'iladi.

Jozeif Juber

Yaxshi qonunlarni hurmat-lamaoq, bema'nilarini esa bekor qilmoq yoxud o'zgartirmoq lozim.

Mixail Rusinek